



O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI

VOL. 3 ISS:3 (2026)

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА

INSURANCE



№	MUNDARIJA	Page
1.	TOVARLAR AUDITI NATIJALARINI AUDITORLIK HISOBOTIDA AKS ETTIRISH TARTIBI <i>Ibragimov Mansur Mardonovich, Qurbonov Muhammadali Bahodirovich</i>	4
2.	O'ZBEKISTONDA XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL ETISH <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Shirinova Obida Toshpulatovna</i>	8
3.	ORGANIZATION OF AN AUDIT OF THE MOVEMENT OF FIXED ASSETS BASED ON INTERNATIONAL STANDARDS REQUIREMENTS <i>Ibragimov Mansur Mardonovich, Orzumurodova Farangiz Damirovna</i>	12
4.	QURILISH TASHKILOTLARIDA BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY YO'NALISHLARI <i>Po'latov Xudoyberdi Uktamovich, Qo'chqorov Muslimbek Bobojon o'g'li</i>	16
5.	SAVDO KORXONALARIDA TOVAR OPERATSIYALARI AUDITINING TASHKILY TA'MINOTI <i>Ibragimov Mansur Mardonovich, Tursunboyev Sarvar Shuxrat o'g'li</i>	19
6.	SAVDO KORXONALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Po'latov Xudoyberdi Uktamovich</i>	24
7.	TURIZM KORXONALARIDA HISOB SIYOSATINI SHAKLLANTIRISH <i>Ibragimov Mansur Mardonovich</i>	27
8.	KORXONALARDA MEHNAT HAQI HISOBI VA NAZORATINING INNOVATSION MEXANIZMLARI <i>Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna, Davronov Miraziz Baxtiyor o'g'li</i>	30
9.	XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA ASOSIY VOSITALAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Bahodirova Madinabonu Ixtiyor qizi</i>	33
10.	MEHNAT HAQI HISOBI VA AUDITINING ZAMONAVIY METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna, Yusupov Shavkar Xushvaqt o'g'li</i>	37
11.	KORXONALARDA MEHNAT HAQI HISOBI VA AUDITINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH <i>Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna, Akmalov Ilg'or Nazirovich</i>	41
12.	XIZMAT KO'RSATUVCHI KORXONALARDA XARAJATLAR HISOBI VA KALKULYATSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Po'latov Xudoyberdi Uktamovich, Toshbekov Firdavs Abdurauf o'g'li</i>	44
13.	XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TOVAR-MODDIY ZAHIRALAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Bahodirova Madinabonu Ixtiyor qizi</i>	47
14.	ASOSIY VOSITALARNI HISOB OBYEKTI SIFATIDA TASNIFLASH VA BAHOLASHNI MHXS ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Shakarov Shahzod Sobir o'g'li</i>	52
15.	XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARNING KREDIT VA QARZ MABLAG'LARIDAN FOYDALANISH HISOBINI VA TAHLILINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Mahmudova Go'zal Samadjon qizi</i>	56

“O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI” JURNALI TAHRIR KENGASHI A‘ZOLARI

1. Teshabayev To‘lqin Zakirovich (Kengash raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, i.f.d. prof.).
2. Fayziyev Orifjon Olimovich (Kengash raisi o‘rinbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktor o‘rinbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich (O‘zbekinvest eksport-import sug‘urta kompaniyasi AJ Bosh direktori, i.f.d. prof.).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d., prof.).
5. Abduraxmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d. prof.).
6. Xudoyqulov Sadirdin Karimovich (TDIU huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy tadqiqot markazi direktori).
7. Xalilov Oybek Nasirovich (O‘zbekiston sug‘urta bozori professional ishtirokchilari Uyushmasi Kengash raisi).
8. Qo‘ldoshev Qamariddin Mansurovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, i.f.d., Bosh muharrir).
9. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Moliya” kafedrasida mudiri, i.f.d. prof.).
10. Shennayev Xo‘jayor Musurmanovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida mudiri, DSc, prof.).
11. Boyev Habibullo Ismoilovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, i.f.d.).
12. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, i.f.d.).
13. Merident Randles (FSA, MAAA. Prinsipal & Consulting Actuary. Senior Consultant, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
14. Ong Xie (FIA, FSAS. Program Manager, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Pronouns: She/Her).
15. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU “Yashil iqtisodiyot” kafedrasida professori, i.f.d.).
16. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU magistratura dekan muovini, i.f.d.).
17. Maxmudov Akbar Abduxamidovich (Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti rektori, PhD, dotsent).
18. Axrorov Zarif Oripovich (TDIU Samarqand filiali “Moliya, soliq va bank ishi” kafedrasida mudiri, i.f.d., dotsent).
19. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i, i.f.n. dots.).
20. Raxmatullayev Botirjon Abduxamidovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti. Akademik faoliyat bo‘yicha prorektor PhD, dotsent).
21. Musaxonzoda Ikromjon Sobirxon o‘g‘li (TMC institute “Milliy ta‘lim yo‘nalishlari akademik faoliyat va ilmiy ishlar” bo‘yicha prorektor, PhD).
22. Hasanov Xayrulla Nasrullayevich (TDIU Besh tashabbus markazi bo‘lim boshlig‘i, PhD).
23. Kenjayev Ilxom G‘iyozovich (TDIU magistratura dekan muovini, PhD, dots.).
24. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida professor v.b., i.f.n.).
25. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD. Tahririyat kengashi kotibi).
26. Agzamov Avazxon Talgatovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, PhD).
27. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
28. Xamdamiyev Shoh-Jaxon Raxmat o‘g‘li (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, PhD).
29. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (“Ma‘mun” universiteti “Iqtisodiyot” kafedrasida dotsenti, PhD).
30. Abduturapova Dildora Farxodjon qizi (“Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish” bo‘limi bosh mutaxassisi, PhD).
31. Abdusattarova Dildora Baxodirovna (TDIU “Soliq va soliqqa tortish kafedrasida” dotsenti).
32. Nosirov Jasur Tursunpulotovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti “Akademik faoliyat va registrator” departamenti rahbari, PhD, dotsent).
33. Adilova Gulnur Jorabayevna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD.).
34. Malikova Dilrabo Mo‘minovna, (TDIU Samarqand filiali "Moliya, soliq va bank ishi" kafedrasida dotsenti, PhD).
35. Bobomurotova Manzura Panji qizi (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida assistenti, PhD).



TOVARLAR AUDITI NATIJALARINI AUDITORLIK HISOBOTIDA AKS ETTIRISH TARTIBI

Ibragimov Mansur Mardonovich

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti
e-mail: mansur.ibragimov.63@mail.ru

Qurbonov Muhammadali Bahodirovich

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi
e-mail: muhammadaliqurbonov@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada korxonalarda tovarlar auditini o'tkazish jarayoni hamda audit natijalarini auditorlik hisobotida aks ettirishning nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq etilgan. Tovarlarning harakati, ularning mavjudligi, saqlanishi va hisobda to'g'ri aks ettirilganligini tekshirishda auditorlik amallarining ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, xalqaro audit standartlari talablari asosida auditorlik dalillarini yig'ish, audit natijalarini baholash va auditorlik hisobotida aks ettirish tartibi tahlil qilingan. Tadqiqot natijasida auditorlik hisobotlarining ishonchligini oshirish hamda tovarlar auditini samaradorligini kuchaytirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: tovarlar auditini, auditorlik hisoboti, auditorlik dalillari, audit natijalari, ichki nazorat, tovar-moddiy zaxiralar, xalqaro audit standartlari, inventarizatsiya, auditorlik xulosasi, moliyaviy hisobot.

Abstract: This article examines the theoretical and practical aspects of auditing goods in enterprises and reflecting audit results in the auditor's report. The importance of audit procedures in verifying the movement, existence, safekeeping, and proper accounting of goods is highlighted. Furthermore, the study analyzes the process of collecting audit evidence, evaluating audit findings, and presenting audit results in the auditor's report in accordance with International Standards on Auditing. Based on the research findings, recommendations have been developed to improve the reliability of audit reports and enhance the effectiveness of goods auditing.

Keywords: goods audit, auditor's report, audit evidence, audit results, internal control, inventories, International Standards on Auditing, inventory count, audit opinion, financial statements.

Абстрактный: В данной статье исследованы теоретические и практические аспекты проведения аудита товаров на предприятиях и отражения результатов аудита в аудиторском отчёте. Освещено значение аудиторских процедур при проверке движения товаров, их наличия, сохранности и правильности отражения в бухгалтерском учёте. Также проанализированы порядок сбора аудиторских доказательств, оценки результатов проверки и их отражения в аудиторском отчёте в соответствии с требованиями международных стандартов аудита. По результатам исследования разработаны предложения, направленные на повышение достоверности аудиторских отчётов и эффективности аудита товаров.

Ключевые слова: аудит товаров, аудиторский отчёт, аудиторские доказательства, результаты аудита, внутренний контроль, товарно-материальные запасы, международные стандарты аудита, инвентаризация, аудиторское заключение, финансовая отчётность.

Kirish (Введение/Introduction).

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida xalqaro hisob tizimi taraqqiy ettirilishida buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari (BHXS) hamda auditning xalqaro standartlari muhim o'rin tutadi. Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari (BHXS) hamda auditning xalqaro standartlari mamlakatlar o'rtasidagi hamkorlikni, jumladan iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish va investitsion muhitni yaxshilashda muhim vosita sifatida xizmat qilmoqda. Shu sababli hozirda xalqaro standartlarni e'tirof etuvchi va uni o'z amaliyotida qo'llovchi mamlakatlar soni oshib bormoqda. Jumladan bizning Respublikamizda ham BHXSga o'tishning o'ziga xos yo'li tanlandi va xalqaro standartlarga o'tish jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlaridan foydalanishning eng muhim va birlamchi omili investitsion muhitni yuqori darajaga olib chiqish hamda investorlar uchun tushunarli bo'lgan hisob tizimini yo'lga qo'yishdir. Investitsion muhitning yaxshilanishi mamlakatlar iqtisodiy o'sishiga hamda natijada aholi turmush farovonligining oshishiga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasida Prezidenti tomonidan 24 fevral 2020 yilda qabul qilingan PQ-4611-sonli "Moliyaviy Hisobotning Xalqaro Standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" Qaror mamlakatimizda Moliyaviy Hisobotning Xalqaro Standartlariga o'tish bo'yicha tub burilish yasadi. Qarordan ko'zlangan maqsad mamlakatimizdagi korxonalar va tashkilotlarda buxgalteriya hisobini moliyaviy xisobotning xalqaro standartlariga bosqichma-bosqich o'tkazishdir. Ushbu qarorning og'ishmasdan amalga oshirilishi xo'jalik yurituvchi subyektlarda buxgalteriya hisobining xalqaro talab va me'yorlar asosida yuritishiga hamda natijada moliyaviy holati

to'g'risidagi ma'lumotlarning ochiq va shaffof bo'lishi olib keladiki bu esa alal-oqibat mamlakatimizga xorijiy investitsiyalarning jalb qilinishida muhim ahamiyatga egadir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Обзор литературы/Literature review).

Tovarlarning auditini natijalarini auditorlik hisobotida aks ettirish masalasi korxonalarda moliyaviy hisobotlarning ishonchligini ta'minlash va manfaatdor foydalanuvchilarga haqqoniy axborot taqdim etishda muhim ahamiyat kasb etadi. To'var-moddiy boyliklar korxonalar aylanma mablag'larining asosiy qismini tashkil etgan sababli ularning mavjudligi, saqlanishi va hisobda to'g'ri aks ettirilganligini auditorlik tekshiruv orqali baholash zarur hisoblanadi. Shu jihatdan auditorlik hisobotida audit natijalarini to'liq va xolis aks ettirish masalasi ilmiy adabiyotlarda keng o'rganilgan [1].

Karimov A., Kurbanbaev J. va Jumanazarov S. tomonidan yaratilgan "Buxgalteriya hisobi" darsligida tovar-moddiy zaxiralarning iqtisodiy mohiyati, ularni hisobga olish tamoyillari va moliyaviy hisobotlarda aks ettirish masalalari yoritilgan. Mualliflar tovarlar hisobi ma'lumotlarining haqqonligini auditorlik tekshiruvlarining sifatiga bevosita bog'liq ekanligini ta'kidlaydilar [1].

Musaev H.N.ning "Audit" darsligida auditorlik tekshiruvlarini tashkil etish, auditorlik dalillarini yig'ish va auditorlik hisobotlarini shakllantirishning nazariy asoslari batafsil bayon etilgan. Muallif audit natijalarini umumlashtirish va auditorlik xulosasini tayyorlash jarayonida auditorlik dalillarining yetarliligi va ishonchligini muhim ahamiyatga ega ekanligini qayd etadi [2].

Urazov K.B.ning "Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobining xususiyatlari" nomli darsligida savdo va xizmat ko'rsatish korxonalarida tovarlar hisobi hamda ularning harakatini hujjatlashtirish masalalari yoritilgan. Asarda tovarlar harakati bilan bog'liq operatsiyalarning to'g'ri aks ettirilishi auditorlik tekshiruvining asosiy obyekti sifatida baholanadi [3].

Urazov K.B. va Vohidov S.V. tomonidan tayyorlangan darslikda tovarlar hisobi ustidan nazorat qilishning uslubiy jihatlari va inventarizatsiya natijalarini hisobda aks ettirish masalalari ko'rib chiqilgan. Mualliflar auditorlik hisobotida inventarizatsiya natijalariga alohida e'tibor qaratish zarurligini ta'kidlaydilar [4].

Urazov K.B.ning "Buxgalteriya hisobi nazariyasi" asarida xo'jalik operatsiyalarini hujjatlashtirish, baholash va hisobotlarda aks ettirishning nazariy asoslari yoritilgan. Muallifning fikricha, auditorlik hisobotining sifati dastlabki hisob ma'lumotlarining ishonchligiga bevosita bog'liqdir [5].

Tashnazarov S.N. o'zining "Moliyaviy buxgalteriya hisobi va hisoboti: xalqaro va milliy jihatlari" monografiyasida xalqaro moliyaviy hisobot standartlari asosida tovar-moddiy zaxiralarni baholash va hisobotlarda aks ettirishning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilgan. Tadqiqotda xalqaro talablarga mos auditorlik hisobotlarini shakllantirishning ahamiyati alohida ko'rsatib o'tilgan [6].

Tulaxodjaeva M.M.ning "Audit" darsligida auditorlik tekshiruvlari natijalarini umumlashtirish, auditorlik hisoboti va auditorlik xulosasini tayyorlash tartibi batafsil yoritilgan. Muallif auditorlik hisobotida aniqlangan kamchiliklar, xatolar va tavsiyalarni aniq hamda tushunarli shaklda bayon qilish zarurligini asoslab bergan [7].

Sanaev N. va Narziev R.ning "Audit" darsligida auditorlik faoliyatining nazariy va amaliy jihatlari, jumladan tovar-moddiy boyliklar auditini tashkil etish va natijalarni rasmiylashtirish masalalari o'rganilgan. Mualliflar auditorlik hisobotining foydalanuvchilar uchun axborot manbai sifatidagi ahamiyatini ta'kidlaydilar hamda audit natijalarining haqqoniy aks ettirilishi boshqaruv qarorlarini qabul qilish sifatini oshirishini qayd etadilar [8].

Shunday qilib, ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, tovarlar audit natijalarini auditorlik hisobotida aks ettirish audit jarayonining yakuniy va eng mas'uliyatli bosqichlaridan biri hisoblanadi. Auditorlik hisobotining sifati auditorlik dalillarining yetariligi, inventarizatsiya natijalarining haqqoniyliigi hamda tovarlar hisobining amaldagi me'yoriy hujjatlar talablariga muvofiqligiga bevosita bog'liqdir.

Tadqiqotni amalga oshirishda foydalanilgan usullar (Методы /Methods).

Ushbu tadqiqot "Tovarlar audit natijalarini auditorlik hisobotida aks ettirish tartibi" mavzusini o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, uning metodologik asosini audit nazariyasi, buxgalteriya hisobi tamoyillari, xalqaro audit standartlari hamda tovar-moddiy zaxiralarni hisobga olish va nazorat qilishga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar tashkil etadi. Tadqiqotda tovarlar auditini o'tkazish jarayonlari, auditorlik dalillarini shakllantirish va audit natijalarini auditorlik hisobotida aks ettirishning ilmiy-uslubiy jihatlari o'rganildi.

Tadqiqot davomida ilmiy bilishning umumiy va maxsus usullaridan keng foydalanildi. Jumladan, tahlil va sintez usuli yordamida tovarlar audit va auditorlik hisobotining nazariy asoslari, ularning iqtisodiy mazmuni hamda audit jarayonidagi o'rni tadqiq qilindi. Ushbu usul audit natijalarini umumlashtirish va auditorlik hisobotini shakllantirish bosqichlarini tizimli ravishda o'rganish imkonini berdi.

Induksiya va deduksiya usullari orqali auditorlik tekshiruvlarida qo'llaniladigan umumiy qoidalari va tamoyillar tahlil qilinib, ular asosida tovarlar audit natijalarini hisobotlarda aks ettirish bo'yicha ilmiy xulosalar shakllantirildi. Mazkur yondashuv audit amaliyotidagi mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqishga xizmat qildi.

Tadqiqotda qiyosiy tahlil usuli ham qo'llanilib, xalqaro audit standartlari talablari bilan milliy audit amaliyoti o'rtasidagi farqlar o'rganildi. Xususan, auditorlik dalillarini yig'ish, inventarizatsiya natijalarini baholash va auditorlik hisobotini tuzish tartiblari taqqoslandi. Natijada auditorlik hisobotlarining sifati va ishonchligiga ta'sir etuvchi omillar aniqlandi.

Shuningdek, me'yoriy-huquqiy tahlil usuli yordamida audit faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlarini, audit standartlari va tovar-moddiy zaxiralarga oid hisob siyosati talablari o'rganildi. Ushbu yondashuv audit natijalarini auditorlik hisobotida aks ettirishning huquqiy asoslarini baholash imkonini berdi.

Tadqiqotda statistik va iqtisodiy tahlil usullari orqali tovarlar harakati, ularning qoldiqlari, inventarizatsiya natijalari hamda aniqlangan kamchiliklarning moliyaviy hisobotlarga ta'siri baholandi. Bunda auditorlik tekshiruvlari natijasida aniqlangan tafvutlar va ularning moliyaviy natijalarga ta'siri tahlil qilindi.

Bundan tashqari, sistemali yondashuv asosida tovarlar audit korxonaning ichki nazorat tizimi, buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlari bilan o'zaro bog'liq jarayon sifatida ko'rib chiqildi. Bu yondashuv audit natijalarining korxonaga boshqaruvi va moliyaviy qarorlar qabul qilishdagi ahamiyatini baholash imkonini berdi.

Tadqiqotda audit risklarini baholash usuli ham qo'llanilib, tovarlar hisobida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatoliklar, noqonuniy operatsiyalar, inventarizatsiya tafvutlari va hujjatlashtirishdagi kamchiliklar bilan bog'liq risklar o'rganildi. Risklarni baholash orqali auditorlik hisobotida aks ettirilishi zarur bo'lgan muhim holatlar aniqlab olindi.

Umuman olganda, tadqiqotda qo'llanilgan metodologik yondashuvlar tovarlar audit natijalarini auditorlik hisobotida aks ettirish tartibini ilmiy jihatdan asoslash, amaldagi amaliyotni takomillashtirish hamda audit hisobotlarining ishonchligi va axborot qiymatini oshirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qildi.

Tahlil va natijalarlar (Анализ и результаты/Analysis and results).

Tovarlar korxonaga aylama mablag'larining asosiy qismini tashkil etuvchi aktivlar hisoblanib, ularning mavjudligi, saqlanishi, harakati va hisobda to'g'ri aks ettirilganligi korxonaga moliyaviy natijalarining haqqoniy shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli tovarlar auditini sifati tashkil etish va uning natijalarini auditorlik hisobotida to'liq hamda xolis aks ettirish auditorlik faoliyatining eng muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi. Auditorlik tekshiruvlarining yakuniy maqsadi moliyaviy hisobotlarda aks ettirilgan tovarlar to'g'risidagi ma'lumotlarning ishonchlik darajasi bo'yicha asoslangan xulosa bildirishdan iboratdir.

O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tovarlar bilan bog'liq operatsiyalar savdo, xizmat ko'rsatish va ishlab chiqarish korxonalarida eng ko'p uchraydigan xo'jalik operatsiyalaridan biri hisoblanadi. Mazkur operatsiyalarning ko'pligi, ularni rasmiylashtirish uchun turli hujjatlarining qo'llanilishi va tovarlarning doimiy harakati hisob ma'lumotlarida xatolar yuzaga kelish ehtimolini oshiradi. Shu sababli auditorlik tekshiruv davomida tovarlarning mavjudligi, ularga egalik huquqi, baholanishi va moliyaviy hisobotlarda to'g'ri aks ettirilganligi alohida o'rganiladi.

Tahlillar natijasida aniqlanishicha, auditorlik amaliyotida tovarlar bilan bog'liq eng ko'p uchraydigan kamchiliklardan biri tovarlarning haqiqiy qoldiqlari bilan buxgalteriya hisobidagi qoldiqlar o'rtasida tafvutlarning mavjudligidir. Bunday tafvutlar ko'pincha inventarizatsiya jarayonining yetarli darajada tashkil etilmaganligi, ombor hisobi va buxgalteriya hisobi o'rtasidagi uzviy bog'liqlikning sustligi yoki ayrim hujjatlarining o'z vaqtida rasmiylashtirilmaganligi natijasida yuzaga keladi. Auditorlik inventarizatsiya natijalarini tekshirish orqali ushbu tafvutlarni aniqlaydilar va ularning moliyaviy hisobotlarga ta'sirini baholaydilar.

Tovarlar auditida auditorlik dalillarini yig'ish muhim bosqich hisoblanadi. Auditorlar dalillarni inventarizatsiya natijalari, birlamchi hujjatlar, shartnomalar, qabul qilish-topshirish dalolatnomalari, yuk xatlari va ombor kartochkalari asosida shakllantiradilar. Olingan dalillarning yetariligi va ishonchligi auditorlik hisobotining sifati bevosita ta'sir qiladi. Agar auditor tomonidan to'plangan dalillar yetarli bo'lmasa, audit natijalari bo'yicha ishonchli xulosa berish imkoniyati cheklanadi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, ayrim korxonalarda tovarlarni baholash bilan bog'liq muammolar ham uchraydi. Xususan, tovarlarni sotib olish qiymatini shakllantirishda transport xarajatlarini, bojxona to'lovlari va boshqa qo'shimcha xarajatlar to'liq hisobga olinmasligi kuzatiladi. Natijada tovarlarning haqiqiy tannarxi buziladi va moliyaviy natijalar noto'g'ri shakllanadi. Auditorlar ushbu holatlarni aniqlash orqali auditorlik hisobotida tegishli tavsiyalar beradilar.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, auditorlik tekshiruvlari davomida aniqlanadigan yana bir muhim muammo tovarlarning hisobdan chiqarilishi bilan bog'liqdir. Ayrim hollarda realizatsiya qilingan yoki yaroqsiz holga kelgan tovarlar hisobdan o'z vaqtida chiqarilmaydi. Bu esa korxonaga balansida mavjud bo'lmagan aktivlarning aks etishiga olib keladi. Auditorlar bunday holatlarni aniqlash uchun ombor hisobi ma'lumotlarini moliyaviy hisobotlar bilan solishtiradilar va zarur hollarda qo'shimcha tekshiruvlar o'tkazadilar.

Korxonalarda ichki nazorat tizimining holati ham audit natijalariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Tahlillar natijasida ichki nazorat tizimi yaxshi tashkil etilgan korxonalarda tovarlar hisobi bo'yicha xatoliklar kamroq uchraydi aniqlandi. Bunday korxonalarda tovarlarni qabul qilish, saqlash va sotish jarayonlari qat'iy nazorat qilinadi, mas'ul shaxslar javobgarligi aniq belgilangan bo'ladi. Natijada auditorlik tekshiruvlari jarayonida jiddiy kamchiliklar kamroq aniqlandi.

Aksincha, ichki nazorat tizimi zaif bo'lgan korxonalarda tovarlarning noqonuniy chiqib ketishi, hujjatlarning noto'g'ri rasmiylashtirilishi yoki hisob ma'lumotlarining buzilishi kabi holatlar ko'proq uchraydi. Auditorlar bunday holatlarni auditorlik risklari sifatida baholaydilar va auditorlik hisobotida alohida qayd etadilar. Bu esa korxonada rahbariyatiga mavjud muammolarni bartaraf etish bo'yicha choralar ko'rish imkonini beradi.

Tovarlar auditining muhim yo'nalishlaridan biri inventarizatsiya natijalarini baholash hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, inventarizatsiya auditor uchun eng muhim audit amallaridan biri bo'lib, u tovarlarning real mavjudligini aniqlash imkonini beradi. Inventarizatsiya davomida aniqlangan ortiqcha yoki kamomad holatlari auditorlik hisobotida albatta aks ettirilishi lozim. Chunki bunday tafovutlar korxonada moliyaviy natijalariga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Audit natijalarini auditorlik hisobotida aks ettirish jarayonida auditor aniqlangan kamchiliklarni ularning muhimlik darajasiga qarab baholaydi. Agar aniqlangan xatoliklar moliyaviy hisobotlarning umumiy ishonchligiga sezilarli ta'sir ko'rsatmasa, auditor ijobiy fikr bildirishi mumkin. Biroq muhim xatoliklar mavjud bo'lsa yoki auditor yetarli dalillar to'play olmagan bo'lsa, shartli fikr, salbiy fikr yoki fikr bildirishdan bosh tortish holatlari yuzaga keladi.

Tahlillar natijasida auditorlik hisobotlarining axborot qiymati ko'p jihatdan auditor tomonidan aniqlangan holatlarning batafsil yoritilishiga bog'liqligi aniqlandi. Auditorlik hisobotida nafaqat aniqlangan kamchiliklar, balki ularning kelib chiqish sabablari, moliyaviy natijalarga ta'siri va bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar ham aks ettirilishi lozim. Bu hisobotdan foydalanuvchilarning qaror qabul qilish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy audit amaliyotida axborot texnologiyalarining keng joriy etilishi auditorlik hisobotlari sifatining oshishiga xizmat qilmoqda. Elektron hisob tizimlari va audit dasturlaridan foydalanish auditorlarga katta hajmdagi ma'lumotlarni qisqa vaqt ichida tahlil qilish imkonini beradi. Natijada auditorlik dalillarining sifati oshadi va auditorlik hisobotlari yanada asosli shakllantiriladi.

O'rganishlar shuni ko'rsatdiki, auditorlik hisobotida tovarlar audit natijalarini aks ettirishda xalqaro audit standartlari talablariga rioya qilish hisobotlarning ishonchligini oshiradi. Xususan, auditorlik dalillarining yetariligi, muhimlik darajasini baholash va auditorlik risklarini aniqlash bo'yicha standart talablarning qo'llanilishi auditorlik xulosasining obyektivligini ta'minlaydi.

Shuningdek, auditorlik hisobotlarida korxonaning ichki nazorat tizimi holati, inventarizatsiya natijalari, aniqlangan kamchiliklar va ularning moliyaviy hisobotlarga ta'siri bo'yicha batafsil ma'lumot berilishi korxonada rahbariyati uchun muhim boshqaruv axboroti hisoblanadi. Bu esa auditorlik hisobotining nafaqat nazorat, balki boshqaruv funksiyasini ham bajarishini ko'rsatadi.

Umuman olganda, o'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, tovarlar audit natijalarini auditorlik hisobotida aks ettirish audit jarayonining yakuniy va eng muhim bosqichi hisoblanadi. Auditorlik hisobotining sifati auditorlik dalillarining ishonchligi, inventarizatsiya natijalarining haqqoniyliigi, ichki nazorat tizimining samaradorligi hamda auditorning professional yondashuviga bevosita bog'liqdir. Audit natijalarining auditorlik hisobotida to'liq, aniq va xolis aks ettirilishi moliyaviy hisobotlardan foydalanuvchilarga ishonchli axborot taqdim etish, korxonalarda moliyaviy intizomni mustahkamlash va boshqaruv qarorlarining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar (Выводы и предложения/Conclusion).

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, tovarlar audit korxonada moliyaviy hisobotlarining ishonchligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'lgan auditorlik faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biridir. Tovarlar korxonada aylanma aktivlarining katta qismini tashkil qilganligi sababli ularning mavjudligi, saqlanishi, harakati va hisobda to'g'ri aks ettirilganligini tekshirish moliyaviy hisobotlarning haqqoniyligini baholashda muhim o'rin tutadi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, tovarlar audit natijalarini auditorlik hisobotida aks ettirish jarayoni auditorlik tekshiruvining yakuniy bosqichi bo'lib, unda auditor tomonidan to'plangan dalillar umumlashtiriladi, aniqlangan kamchiliklar baholanadi va moliyaviy

hisobotlarning ishonchligi yuzasidan professional fikr bildiriladi. Auditorlik hisobotining sifati auditorlik dalillarining yetariligi va ishonchligiga, inventarizatsiya natijalarining haqqoniyligiga hamda auditor tomonidan qo'llanilgan audit amallarining samaradorligiga bevosita bog'liqdir.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, korxonalarda tovarlar hisobi bilan bog'liq kamchiliklar asosan inventarizatsiya natijalari va buxgalteriya hisobi ma'lumotlari o'rtasidagi tafovutlar, tovarlarni baholashdagi xatolar, hujjatlarni rasmiylashtirishdagi kamchiliklar hamda ichki nazorat tizimining yetarli darajada tashkil etilmaganligi bilan bog'liq. Mazkur holatlar auditorlik tekshiruvlari jarayonida aniqlanib, auditorlik hisobotida tegishli tarzda aks ettirilishi moliyaviy hisobotlardan foydalanuvchilar uchun muhim axborot manbai hisoblanadi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari auditorlik hisobotlarida aniqlangan kamchiliklarning mohiyati, ularning moliyaviy natijalarga ta'siri va bartaraf etish yo'llarini batafsil yoritish korxonalarda ichki nazorat tizimini takomillashtirish hamda moliyaviy intizomni mustahkamlashga xizmat qilishini ko'rsatdi. Auditorlik hisobotlari nafaqat nazorat vositasi, balki boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim axborot manbai sifatida ham ahamiyatga ega ekanligi asoslandi.

Umuman olganda, tovarlar audit natijalarini auditorlik hisobotida xalqaro audit standartlari talablari asosida to'liq va xolis aks ettirish moliyaviy hisobotlarning shaffofligini oshirish, auditorlik xulosalarining ishonchligini ta'minlash hamda korxonalar faoliyatining samaradorligini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Takliflar

Korxonalarda tovarlar audit natijalarini auditorlik hisobotida aks ettirishda xalqaro audit standartlari talablarini to'liq qo'llash va auditorlik hisobotlarini xalqaro amaliyotga mos ravishda shakllantirish lozim.

Auditorlik tekshiruvlari davomida tovarlarning mavjudligi va saqlanishini baholash maqsadida inventarizatsiya natijalaridan keng foydalanish hamda inventarizatsiya jarayonlari ustidan nazoratni kuchaytirish zarur.

Auditorlik hisobotlarida aniqlangan kamchiliklar va xatolarni umumiy tarzda emas, balki ularning kelib chiqish sabablari, moliyaviy natijalarga ta'siri va bartaraf etish choralarini ko'rsatgan holda batafsil bayon etish tavsiya etiladi.

Tovarlar hisobini yuritishda elektron ombor hisobi va avtomatlashtirilgan axborot tizimlaridan foydalanishni kengaytirish orqali auditorlik dalillarining ishonchligini oshirish maqsadga muvofiq.

Korxonalarda ichki nazorat tizimini kuchaytirish, ayniqsa tovarlarni qabul qilish, saqlash va realizatsiya qilish jarayonlarida javobgarlik mexanizmlarini takomillashtirish lozim.

Auditorlik tashkilotlari tomonidan tovarlar auditini o'tkazishda riskga asoslangan audit yondashuvlarini qo'llash va audit risklarini muntazam baholab borish tavsiya etiladi.

Auditorlar malakasini oshirish jarayonlarida tovar-moddiy zaxiralar audit va auditorlik hisobotlarini tayyorlash bo'yicha maxsus o'quv dasturlarini keng joriy etish zarur.

Auditorlik hisobotlarida tovarlar bilan bog'liq aniqlangan kamchiliklar bo'yicha amaliy tavsiyalar berish amaliyotini rivojlantirish lozim, chunki bu korxonalarda mavjud muammolarni bartaraf etish samaradorligini oshiradi.

Tovarlar hisobi va auditini raqamlashtirish jarayonlarini jadallashtirish, auditda zamonaviy axborot texnologiyalari va ma'lumotlar tahlili (Data Analytics) vositalaridan foydalanishni kengaytirish maqsadga muvofiqdir.

Auditorlik hisobotlarining axborot qiymatini oshirish maqsadida ularda tovarlar harakati, inventarizatsiya natijalari, ichki nazorat tizimi holati va aniqlangan risklar bo'yicha qo'shimcha tahlil ma'lumotlarni aks ettirish tavsiya etiladi.

Shunday qilib, tovarlar audit natijalarini auditorlik hisobotida to'g'ri va to'liq aks ettirish korxonalarda hisob va nazorat tizimini takomillashtirish, moliyaviy hisobotlarning ishonchligini oshirish hamda manfaatdor foydalanuvchilarni sifatli axborot bilan ta'minlashning muhim omili hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar (Литературы/ References):

1. Karimov A., Kurbanbaev J., Jumanazarov S. Buxgalteriya hisobi. Darslik. –T.:Iqtisod-moliya, 2019. - 512 b.
2. Musaev H.N. Audit. Darslik. – T.: Moliya, 2003;
3. Urazov K.B. Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobining xususiyatlari. Darslik. Qayta ishlangan va to'ldirilgan 2-nashr. - T.: «Fan va texnologiya», 2019. – 540 b.
4. Urazov K.B., Vohidov S.V. Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobining xususiyatlari. Darslik. - T.: Adib, 2011;
5. Urazov K.B. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. –Samarkand, 2017;

6. Tashnazarov S.N. Moliyaviy buxgalteriya hisobi va hisoboti: xalqaro va milliy jihatlar. Monografiya. - T.: Iqtisod-moliya, 2009. - 168 b.;
7. Tulaxodjaeva M.M. Audit, T.: BAMA, 2014;
8. Sanaev N, Narziev R. Audit, «Sharq» nashriyoti, Toshkent, 2001.
9. Xasanov Farrux Ravshanovich. (2026). O'zbekiston sug'urta tashkilotlari faoliyatida risklarni boshqarishni takomillashtirishda xalqaro standartlarning o'rni va ahamiyati. Insurance market of Uzbekistan, 3(1), 62–64. https://doi.org/10.55439/INS/vol3_iss1/368